

Eldor Aripov mintaqa davlatlari Xavfsizlik kengashlari kotiblariga Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi loyihasini taqdim etdi



18-aprel kuni Samarqandda Markaziy Osiyo davlatlari Xavfsizlik kengashlari kotiblarining ikkinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv doirasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, radikalashuv va transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda, Markaziy Osiyoning ekologik va transport xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik masalalari ko'rib chiqildi.



Tadbir davomida SMTI direktori Eldor Aripov yig'ilish ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-avgust kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvida bildirilgan tashabbusini amalga oshirish doirasida tayyorlangan Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi loyihasini taqdim etdi.

Konsepsiyani ishlab chiqish va qabul qilishning dolzarbligi haqida soʻz yuritar ekan, Eldor Aripov jahonda shiddat bilan oʻzgarib borayotgan geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyat sharoitida Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni taʼminlash masalalari boʻyicha yagona qarash va yondashuvlarni shakllantirish talab etilayotganini taʼkidladi.

Uning soʻzlariga koʻra, bugungi kunda mintaqa oʻz taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qoʻygan. Umumiy manfaatdorlik va birgalikdagi saʼy-harakatlar tufayli bu yerda yangi muhit shakllandi, bu esa koʻp tomonlama hamkorlik jarayonlariga ortga qaytmas va izchil tus berdi.

Shu oʻrinda, ichki va tashqi tahdidlar hamda xavf-xatarlarga qarshi xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlash Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror rivojlanish surʼatlarini yuqori darajada saqlab qolishning eng muhim sharti hisoblanadi.



Hamkorlikka ochiqlik, uchinchi tomon manfaatlariga qarshi yoʻnaltirilmaganligi taqdim etilgan Konsepsiyaning oʻziga xos xususiyatlari sifatida SMTI direktori tomonidan alohida qayt etildi.

Bundan tashqari, hujjat loyihasida mintaqaviy xavfsizlik koʻp qirrali tabiatga ega ekanligi, zamonaviy chaqiriq va tahdidlarga kompleks yondashuv va birgalikda kurashishni talab etishi hamda barqaror rivojlanish bilan uzviy bogʻliqligi alohida qayd etilgan.